



## HIKOYALARNI O'ZARO QIYOSLAB O'RGANISHNING SAMARADORLIGI

Olimboyeva Malohat Qudrat qizi

Urganch davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich  
talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7990689>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> May 2023

Accepted: 30<sup>th</sup> May 2023

Online: 31<sup>th</sup> May 2023

### KEY WORDS

*Hikoyalar dasturiyligi, obrazli tasvir, mavzuning dolzarbligi, makon-zamon munosabati, "Urushning so'ngi qurboni", "O'g'ri" hikoyalari.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada hikoyalarni taqqoslab o'rganish yuzasidan fikr va mulohazalar yuritilgan bo'lib, O'tkir Hoshimov va Abdulla Qahhorlarning hikoyalari asosidagi taqqosli tahlil keltirilgan. Maktab o'quvchilarning badiiy tafakkurini oshirishda hikoyalar bilan ishlashish, ularni tahlil qilish orqali maktab o'quvchilarining bilim saviyasini oshirish ko'zda tutiladi. O'quvchi yoshlarning bilim darajasini oshirishda hikoyalarni qiyoslab o'rganishning tanqidiy tahlilini yuzaga keltirishda pedagogik usullardan ham foydalanilish ham ahamiyatlidir. Taqqoslash va taqqoslilik tamoyillaridan unumli foydalangan holatda o'qituvchi o'z o'quvchilariga hikoyaning tahlillarini amalga oshirishda bir emas, ikkinchi hikoyani ham o'rganish imkonini beruvchi taqqoslilik tamoyillarining o'rnini ham katta ekanligi bilan ahamiyatli sanaladi.*

Hikoyalar hajmi jihatidan boshqa turdagi nasriy asarlardan farq qilib, voqealar rivojining ifodalanishiga ko'ra maktab darsliklariga kirgiziladi. Shuningdek, kaktab darsliklarining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mavzu jihatdan hikoyalar quyidagi mazmunlarda tashil etiladi:

1. Do'stlik munosabatlarining ulug'lanishi;
2. Vatanga muhabbat mavzusidagi hikoyalar;
3. Yaxshilik va yomonlik mazmunidagi hikoyalar;
4. Haqiqatgo'ylik, adolatlilik mazmunidagi hikoyalar;
5. Izlanuvchanlik va sarguzasht fonidagi hikoyalar;
6. Kelib chiqishi jihatidan tarixiy mazmundagi hikoyalar.

Yuqorida qayd etilgan hikoyalarning o'zaro bir xillilik asosida voqealarning birlashishi, bir xil mazmun-mohiyat asosida birlashtiriluvchi tipga asoslaniluvchi hikoyalar o'zining yosh xususiyatiga muvofiq ekanligi bilan ham izohlaniladi. Hikoyalarning taqqoslab o'rganilishi natijasida kitobxonda har ikki hikoyaning ham o'ziga xos vaqealar rivoji, kulminatsion yechimlarda asar qahramonlarining munosib ishtiroki o'quvchilarning yosh xususiyatiga turlicha ta'sir qiladi, deyish mumkin. "Hikoyalar biror bir davr bilan bog'liq holda bo'ladi. O'quvchilar qahramonlarning ma'naviyatiga bo'lgan qiziqishlari tufayli hayotning turli oq va



qora tomonlari xususida muayyan tushunchalarga ega bo'ladi. Ularda yaxshilikka nisbatan muhabbat, yomonliklarga nisbatan nafrat tuyg'usi shakllanadi. Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko'rishni taqazo etadi. Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o'rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, shartli yoki ijodiy o'qish, muommoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo'lishi kerak. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish va dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakatlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi." [1]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlash mahoratini ochib berishda hikoyalarning o'zni katta bolib, asosan, tahli jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlashish texnologiyasi kuchli b'lishi lozim ekanligi bilan xarakterlanadi. Hikoyalarni taqqoslab o'rganishda avvalo, e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalardan biri bu hikoya voqea hodisalarining qay makon va zamonda amalga oshirilayotgan ekanligi anglashiladi. Ushbu holat hikoyalarning tahlilida muhim ahamiyat kasb etib, hikoyaning o'zaro mutanosibligini ta'minlab berishda yoki voqear rivojiga nisbatan munosabat berishda, xulosa chiqarishda katta hamiyat kasb etadi. Taqqoslab o'rganishning ahamiyati shumdaki, ikkala hikoya qahramonlarining ham asar voqealar rivojiga ko'ra qanday yo'l tutishlariga ko'ra o'quvchilarning ikki toifaga bo'linib, mazkur hikoyalar yuzasidan shaxsiy xulosalar berish yoki munosabat bildirishda o'zni katta. Hikoyalarni tahlil qilishda shuni unutmaslik kerakki, o'zaro ijtimoiy muhitning do'stona munosabatlarga qurilishi o'quvchilarning erkin fikrlay olishi, tahlilga tortilayotgan har ikki hikoyaning voqealar rivojida munosib harakat va holatlarni izohlab berishlarida yetakchi vosita sanaluvchi unsurlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Manashunday hikoyalar yaratishda o'zbek adabiyotida ko'lab ijodkorlar mavjud bo'lib, ularning orasida ozining qalami o'tkirligi mahorati bilan ajralib turuvchi hikoyanavis ijodkorlardan biri Abdulla Qahhordir. "Abdulla Qahhor o'zbek realistik hikoyachiligining asoschilaridan biri bo'lib, adabiyotimizda bu janrning shakllanishi va o'sishi uning nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Abdulla Qahhor G.G'ulom, A.Qodiriy, Oydin, Oybek kabi yozuvchilar bilan hamkorlikda ijod etib, hikoya janrining ko'pgina namunalarini yaratdi. Uning "Bemor", "Anor", "Millatchilar", "Tomoshabog'", "O'g'ri", "Maston", "Qanotsiz chittak", "Sat'atkor", "Jonfig'on", "Yillar", "Adabiyot muallimi" kabi hikoyalari o'zbek adabiyotida hikoya janrining sezilarli darajada taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatgan asarlar sirasiga kiradi. Abdulla Qahhor hikoyalarni mazmuni va janr xususiyatlariga ko'ra ikki guruhga ajratib tahlil etish mumkin". [2] Abdulla Qahhor hikoyalarning xalqchil ekanligi, soda va samimiy til qonuniyatlariga yo'g'rilgan ekanligi uchun maktab opquv dasturlariga kirgizilgan bo'lib, hikoyalarni tahlil etish va taqqoslab o'rganishda ahamiyatlilik darajasi yuqori turishi bilan xarakterlanadi.

Maktab darsliklarida keltirilgan hikoyalarning badiiy jihatdan tahlil etilishi va ularning taqqoslab o'rganilishida e'tiborga olinishi zarur bo'lgan masalalardan yana biri shuki, hikoyalarda ifodalanilayotgan voqealar rivojining qanday mavzular ko'lamida amalga oshirilayotgan ekanligi bilan izohlaniladi. Misol uchun: O'tkir Hoshimov va Abdulla Qahhor hikoyalarni olaylik. Bunda, asosan har ikki ijodkorning so'z qo'llash mahorati o'zning ifoda etilishi bilan xarakterlanadi. "Urushning so'ngi qurboni" hikoyasida O'tkir Hoshimov xalqimiz



boshiga kelgan og'ir musibatlarining yorqin tasvirini ifodalabgina qolmay, oilaviy muhitning real tasvirida o'zaro kelishmovchilik va nizolarning bosh sababini yorqin tarzda ifodalab kelgan. Shunisi ahamiyatliki, Abdulla Qahhor qalamigaa mansub "O'g'ri" hikoyasi tasvirlarida ham yo'qchilik, o'g'irlik tasvir vositalarining voqealar rivojiga ta'sir qilishi bilan ahamiyat kasb etadi. Hikoyalarni taqqoslab o'rganishda hikoyalar yaratilish tarixidagi mutanosibliklar yoki farqli jihatlar, o'xshash holat va vaziyatlarning topilishi, tahlil etilishi, izohlanishi hikoyalarning taqqoslab o'rganilishida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. "Yarim kecha bo'lib qolgan, atrof jimjit. Faqat olislarda it uliydi. Ayvon to'sinidagi uzun mixga ilig'liq lampochka xira nur taratadi. Chiroq atrofida o'ralashgan chivinlar bir zum tinmaydi. Hovlining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay pushtalari orasida suv yaltiraydi. Onda-sonda rang olgan qulupnaylar ko'zga tashlanib qoladi. Qayoqdandir shamol keldi. Hovli etagidagi yong'oq shoxlari bir guvullab qo'ydi. Shoikrom uyqu elta boshlagan ko'zlari bilan o'sha tomonga bir qarab qo'ydi-yu, ter hidi anqib turgan lo'labolishga boshini tashladi. Shu ondayoq yana o'sha tovoqqa, bandi kuygan qoshiqqa ko'zi tushib, tag'in g'ashlandi. "Ziqna bo'lmay o'! - deb o'yladi xotinini so'kib. - Azaldan qurumsoq edi, zamon og'irlashgandan buyon battar bo'ldi".[3]

Xulosa qilib aytish mumkinki, kishilarning bilim darajasini oshirish, ularga faqatgina nazariy bilimlarni beribgina qolmasdan turli mazmundagi nasriy asarlar bilan tanishish ham katta foyda beradi. Shuningdek, hijoyalar yuzasidan nazariy ma'lumotlarni egallash ularning amaliy jihatidan qo'llanilishi tyuzasidan hikoyalarni taqqoslab o'rganish, yaxshi samara berishi bilan ahamiyatlidir.

### References:

1. Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi. "Umumiy o'rta ta'limda hikoya o'qitish metodikasi" maqola. Scientific progress – 2021
2. Normatov U. Ustoz ibratini. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. - B.18
3. Tashbekova Dilobar Hasan qizi. Urushning so'ngi qurboni. "Talqin va tadqiqotlar" ilmiy-uslubiy jurnali